

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 344 sahifa.
2025-yil, 17-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyevna	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odambayev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI.....	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	



O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI

Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich

NamDTU "Buxgalteriya hisobi" kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

Email: mamajanov_shuxrat64@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo'jaligi sohasida risklarni sug'urtalash tizimining ahamiyati, uni joriy etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari hamda amaliy mexanizmlari atroflicha tahlil etilgan. Sug'urta instituti qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sir etuvchi tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liq risklarni kamaytirishning samarali vositasi sifatida qaraladi. Shuningdek, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sug'urtasi tizimini takomillashtirish yo'nalishlari, davlat qo'llab-quvvatlash choralari va zamonaviy xalqaro tajribalarni joriy etish imkoniyatlari yoritib berilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, sug'urta mexanizmlarining samarali faoliyati qishloq xo'jaligi subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: tabiiy hodisalar, mulkiy manfaatlar, texnogen ofatlar, sug'urta tariflari, sug'urta qoplamasi.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the importance of the agricultural risk insurance system, its legal and economic foundations, and its practical implementation mechanisms. The insurance institution is viewed as an effective tool for mitigating risks arising from natural, economic, and social factors that affect agricultural production processes. Furthermore, the study explores the directions for improving the agricultural insurance system in Uzbekistan, measures of state support, and opportunities for integrating modern international practices. The findings indicate that the effective functioning of insurance mechanisms plays a crucial role in ensuring the financial stability of agricultural entities and strengthening food security.

Keywords: natural events, property interests, man-made disasters, insurance rates, insurance coverage.

Аннотация. В статье проведён всесторонний анализ значения системы страхования сельскохозяйственных рисков, её правовых и экономических основ, а также практических механизмов реализации. Институт страхования рассматривается как эффективный инструмент снижения рисков, возникающих под воздействием природных, экономических и социальных факторов, влияющих на процессы сельскохозяйственного производства. Кроме того, раскрыты направления совершенствования системы страхования сельского хозяйства в Узбекистане, меры государственной поддержки и возможности внедрения современных международных практик. Результаты анализа показывают, что эффективное функционирование страховых механизмов играет ключевую роль в обеспечении финансовой устойчивости субъектов аграрного сектора и укреплении продовольственной безопасности страны.

Ключевые слова: стихийные бедствия, имущественные интересы, техногенные катастрофы, страховые тарифы, страховое покрытие.

KIRISH

Ma'lumki, respublikamiz geografik jihatdan tog' tizimlari, yirik cho'llar, yaylovlar va qir-adirlarni o'z ichiga olgan mintaq bo'lib, iqlimi keskin kontinental xarakterga ega. Kecha va kunduz hamda fasllar haroratining katta farqlanishi, yuqori quyosh radiatsiyasi va nisbatan past namlik bilan tavsiflanadi. Respublikamizning hududiy joylashuvi va iqlim sharoitlariga ko'ra, ayrim hududlarda tabiiy ofatlar — zilzila, yer va tosh ko'chkilari, o'pirilishlar, kuchli shamol, jala, do'l, qor ko'chkisi, qurg'oqchilik, sel, suv toshqinlari hamda tabiiy yong'inlar kabi holatlar kuzatiladi.

Iqlim o'zgarishlari ro'y berayotgan hozirgi davrda jahon miqyosida turli tabiiy hodisalar va ularning takrorlanishi bilan bog'liq xavf-xatarlar davlatlar iqtisodiy o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday talofatlar oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan tabiiy ofatlar va texnogen hodisalar xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga,



mamlakatlar aholisining mol-mulkiga, shuningdek, agrosanoat majmui korxonalari faoliyatining izdan chiqishiga hamda moliyaviy tanazzulga olib kelmoqda.¹

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligida sug'urta iqtisodiy beqarorlikni kamaytiruvchi va iste'molni silliqashtiruvchi muhim instrument sifatida e'tirof etiladi. Jonathan Morduch 1995-yildagi sug'urta va daromadni silliqashtirish mexanizmlari haqidagi tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, xususiy va ijtimoiy sug'urta vositalari kambag'allik va riskka qarshi himoyani kuchaytiradi, shuningdek, oilalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Bu umumiy tamoyillar O'zbekiston sharoitida ham dolzarbdur, chunki fermerlar iqlimiy va bozor tebranishlariga nisbatan yuqori darajada ta'sirchan.

Indeks asosidagi sug'urta (index insurance) qishloq xo'jaligi risklarini boshqarishda amaliy va nisbatan arzon yechim sifatida qaraladi. J. R. Skees 1999-yilda indeks sug'urta modellari va ularning an'anaviy individual baholashga nisbatan afzalliklarini tahlil qilgan; Peter Hazell esa 2005-yilda ob-havoga bog'liq indeks mahsulotlari iqlim xavflarini kamaytirishda muhim vosita ekanini ta'kidlagan. Shu bilan birga, indeks sug'urta bazis riskiga duch kelishi, ta'lim va ishonch masalalari esa foydalanuvchi talabiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida ko'plab tadqiqotlar ogohlantiradi.

Empirik tadqiqotlar indeks sug'urtaning mahalliy daromad va ijtimoiy natijalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi. Christopher B. Barrett va uning hamkorlari (Chantarar va boshqalar) 2014-yil hamda keyingi yillardagi ishlarda indeks sug'urta dasturlari kambag'allikni kamaytirish, majburiy aktiv sotuvlarini oldini olish va uzoq muddatli farovonlikni oshirishda samarali vosita ekanini aniqlagan. So'nggi yillarda, xususan, 2024–2025-yillar davomida chop etilgan tadqiqotlarda indeks sug'urtaning uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy ta'sir mexanizmlari yanada chuqur tahlil qilinmoqda. Bu natijalar O'zbekistonda mos instrumentlarni modellashtirish va pilot loyihalar orqali joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston uchun o'tkazilgan maxsus tahlillar va amaliy hisobotlar sug'urta bozorini mustahkamlash hamda indeks asosidagi yechimlarni sinovdan o'tkazish tarafdorligini qo'llab-quvvatlaydi. UNDPning O'zbekistondagi crop insurance tizimi bo'yicha tahlili hamda World Bankning mamlakat agrar sektori haqidagi hisobotlari sug'urta tizimining mavjud zaif tomonlari va imkoniyatlarini aniqlaydi. Ular davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, subsidiyalarni kengaytirish hamda meteorologik kuzatuv stansiyalari va ma'lumot platformalari infratuzilmasini mustahkamlash zarurligini tavsiya etadi. KfW va boshqa moliyaviy hamkorlar tomonidan o'tkazilgan texnik baholashlar esa mevachilik va sabzavotchilik tarmoqlarida sug'urta instrumentlarini keng joriy etish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Ushbu manbalar O'zbekistonda sug'urta mexanizmlarini ishlab chiqishda amaliy yo'nalishlarni belgilashda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalash quyidagi natijalarga erishishga xizmat qiladi: iste'mol va daromadlarni silliqashtirish, investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish, davlat budjeti uchun tashqi zararni kamaytirish orqali makrobarqarorlikni mustahkamlash hamda xususiy moliyalashtirish oqimini jalb etish. Shu bilan birga, indeks sug'urta va an'anaviy mahsulotlarni birgalikda moslashtirish, bazis riskini kamaytirish uchun meteorologik va agronomik ma'lumotlar infratuzilmasini kuchaytirish, shuningdek, huquqiy-normativ mexanizmlarni takomillashtirish zarur. O'zbekiston sharoiti uchun amaliy tavsiya — segmentga mos pilot dasturlarni joriy etish, ularning samaradorligini qattiq monitoring asosida baholab, bosqichma-bosqich kengaytirishdan iboratdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va empirik yondashuvlardan foydalanildi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistik qo'mitasi, Jahon banki va UNDPning rasmiy hisobotlaridan hamda mavjud ilmiy nashrlardan olindi. Olingan ma'lumotlar korrelyatsion va tendensiya tahlillari orqali qayta ishlanib, amaliy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi tarmog'i iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan o'zining ko'plab jihatlari bilan farqlanadi. Respublikamizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga tabiiy va texnogen ofatlar, yong'inlar, o'simliklar kasalliklari, yovvoyi hayvonlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan yetkaziladigan zararlar kabi risklardan sug'urtalash imkonini beruvchi qonun qabul qilingan. Mazkur hujjatga ko'ra, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tabiiy va texnogen ofatlar, yong'in, o'simliklar va hayvonlarning zararkunandalar hamda kasalliklardan

1 Yadgarov A.A. Rivojlangan mamlakatlarda agrar tarmoqni sug'urtalash holati va sohada erishilgan tajribalar. "Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda sug'urtaning roli: tendensiyalar, muammolar va yechimlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, Toshkent, 2023 yil 16 noyabr.



zararlanishi, yovvoyi hayvonlar tomonidan ekinlarning payhon qilinishi yoki qishloq xo'jaligi hayvonlariga zarar yetkazilishi, uchinchi shaxslarning qasddan noqonuniy harakatlari kabi xavflarni qoplaydigan sug'urta shartnomalarini tuzish amaliyotiga ega.

Qishloq xo'jaligi vazirligi qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalashni muvofiqlashtiruvchi davlat organi hisoblanadi. Sug'urtalash jarayonini boshqarish, ishlab chiqaruvchilarni xavf-xatarlardan himoya qilish va zararni qoplash uchun sug'urtalovchi vazifasini bajaruvchi Qishloq xo'jaligi sug'urtasi notijorat jamg'armasi tashkil etilgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar tomonidan yetishtiriladigan mahsulotlarning yo'qotilishi xavfi, ekinlarga va qishloq xo'jaligi hayvonlariga, shuningdek issiqxonalarga va ularda yetishtiriladigan mahsulotlarga zarar yetkazilishi bilan bog'liq bo'lgan mulkiy manfaatlar mazkur qishloq xo'jaligi sug'urtasining obyektlari hisoblanadi. Sug'urta mukofotining miqdori qishloq xo'jaligi ekinlari va hayvonlarning har bir turi uchun belgilanadi. U o'simliklar va hayvonlarning o'ziga xos xususiyatlari, ular bilan bog'liq xavflar hamda mintaqalarning tabiiy-iqlim sharoitlariga bevosita bog'liq bo'ladi.

Respublikamiz hududining katta qismi iqlim o'zgarishining sezilarli ta'siri doirasida joylashgan. Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlarini ayrim hollarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga, odamlarning turmush tarziga, sog'lig'iga hamda iqtisodiy obyektlarning barqaror faoliyat yuritishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda iqlim o'zgarishi oqibatida respublika hududida tabiiy ofatlar soni sezilarli darajada ortdi. Ular orasida kuchli shamollar, suv toshqinlari, yong'inlar va qor ko'chkilari salmoqli ulushni tashkil etmoqda. Global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq vaziyat sababli respublikamizda iqlim o'zgarishiga moslashuv choralarini ko'rish, tabiiy ofatlar bilan bog'liq yo'qotishlarning oldini olish va ularni kamaytirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda [1].

Yuqoridagi salbiy holatlardan yetkazilgan zararlarni qoplashning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida tabiiy ofatlarni sug'urtalash tadbirlarini keltirish mumkin. Ushbu yo'nalishdagi risklarni sug'urtalash bo'yicha hozirda respublikamiz sug'urta bozorida "O'zagrosug'urta" va "Agroinvest" sug'urta kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda. Bugungi kunda sug'urta kompaniyalarining mijozlarga tabiiy risklardan himoya qilish bo'yicha xizmat ko'rsatishdagi roli ortib bormoqda. Biroq amaliyotga nazar tashlansa, qishloq xo'jaligidagi ekinlarning sug'urtalash ko'rsatkichlari juda kam ulushni tashkil etadi [2].

Ekinlarni sug'urtalash amaliyotida sug'urta qoplamasini asoslab berish va to'lab berish uchun uzoq muddatli tekshiruvlar talab etiladi. Sug'urta qoplamalarini olish uchun fermer xo'jaliklari Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan belgilangan agronomik va agroteknik tavsiyalarga qat'iy amal qilishi shart. Sug'urta tariflari har bir mintaq va hosil turi bo'yicha farq qiladi, bu esa fermer xo'jaliklarida tushunishda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi.

Mazkur holat sug'urtalash mexanizmlarining takomillashtirilishini va jarayonlarning ochiqqligini oshirish zaruratini ko'rsatadi. Fermer xo'jaliklari faoliyatida tabiiy omillarga bog'liq risklar mavjud bo'lsa-da, bu omillarni samarali boshqarish orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror va investitsiyalar uchun jozibador yo'nalishga aylantirish imkoniyati mavjud. Shu maqsadda bank muassasalari tomonidan ekinlarni sug'urtalash mexanizmlarini kredit xavfsizligini mustahkamlovchi kafolat sifatida joriy etish amaliyoti yanada kengaymoqda. Bu esa, o'z navbatida, fermer xo'jaliklariga kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi, kafolatlangan sug'urta himoyasiga asoslangan barqaror moliyaviy tizimni shakllantirish istiqbolini ochadi.

Ekinlar holatini tizimli ravishda monitoring qilish, hosil yetishmovchiligi xavfi paydo bo'lganda kreditlashni to'xtatish imkonini beradi. Shu orqali davlat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga yo'naltirilgan mablag'larning samaradorligini ta'minlashi mumkin.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida paxta va bug'doy eng muhim ekinlar bo'lib, jami haydaladigan yerlarning 50–60 foizgacha qismini qamrab oladi. Shu bois ushbu ekinlar respublikamiz sug'urta amaliyotida boshqa ekinlarga nisbatan ko'proq sug'urta qilinadi [3]. Shimoliy hududlarda paxtaning atigi 3 foizi sug'urtalangan bo'lsa, markaziy hududlarda bu ulush mavjud paxta maydonlarining 60 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Bug'doyda ham shunga o'xshash holat kuzatiladi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasida tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish tizimi tahliliga ko'ra, markaziy hududlarda sug'urtalangan maydonlar 30 foizdan ortiq, shimolda esa atigi 2 foiz atrofidadir.²

Respublikamiz bo'ylab bug'doy mahsulotini ishlab chiqarish davlat miqyosida strategik ahamiyatga ega, biroq uni sug'urtalash masalasi ayrim hududlarda past darajada qolmoqda. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi uy xo'jaliklari va tadbirkorlik subyektlarida saqlanadigan chorva mollari sug'urtasi tartibi to'g'risidagi nizom hukumat qarori bilan tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra, bunday sug'urta ixtiyoriy hisoblanadi. Mamlakatda chorva mollari sug'urtalash faoliyati sust rivojlangan, faqat ayrim qorako'lchilik va qo'ychilik xo'jaliklarida tabiiy xavf-xatarlardan, jumladan yaylovlarda qurg'oqchilik tufayli ko'riladigan zararlardan sug'urtalash amaliyotlari mavjud.

2 O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasida tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish tizimining batafsil tahlili. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va Qishloq xo'jaligi tashkiloti Budapesht, 2023

Ayni paytda mamlakat bo'ylab katta hajmda intensiv bog'lar tashkil etilmoqda. Shu bois yaratilayotgan bog'larni sug'urtalash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligida tovar ishlab chiqaruvchilarning mol-mulkini va yetishtirayotgan mahsulotlarini sug'urtalash katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Chunki sug'urta orqali turli shakldagi tabiiy ofatlardan ko'riladigan zararlarni qoplash kafolati yaratiladi.

Agrosug'urta segmentida bog'lar va uzumzorlarni sug'urtalashning turli uslublari taklif etiladi. Ular orasida eng ommaboplari quyidagilardir:

— qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchilarining bog'lardan kam hosil olishi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy zararlarini sug'urtalash;

— qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchilarining uzumzorlari hosilini do'l urishi oqibatida hosil kamayishidan kelib chiqadigan moliyaviy zararlarini sug'urtalash;

— daraxtlar, toklar va ularning ko'chatlarini tabiiy ofatlar natijasida zararlanishi yoki nobud bo'lishidan sug'urtalash.

Yuqoridagi masalalarni samarali hal etish uchun, bizningcha, qishloq xo'jaligida eng xavfli tabiiy risklarni aniqlashda zarur bo'ladigan sug'urta tariflarini qayta ko'rib chiqish hamda qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan to'lanadigan sug'urta mukofotlarini davlat tomonidan subsidiyalash mexanizmini yaratish zarur [4].

Respublikamiz agrar sohasidagi sug'urta bozorini yangi xorijiy ishtirokchilar uchun ochiqligini ta'minlash, qishloq xo'jaligidagi sug'urta tariflarini bozor talablari asosida qayta ko'rib chiqish, davlat sug'urta kompaniyalarini xususiyashtirish hamda sug'urta bozorida raqobat muhitini jadallashtirish — qishloq xo'jaligini sug'urtalashda talabga asoslangan va mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvlarni shakllantirishda muhim omil bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston qishloq xo'jaligi sektori tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'sirida yuqori darajadagi risklarga duch kelmoqda, bu esa sug'urta tizimini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi. So'nggi yillarda iqlim o'zgarishi oqibatida sodir bo'layotgan tabiiy ofatlar — kuchli shamollar, suv toshqinlari, qurg'oqchilik, qor ko'chkilari va yong'inlar — qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash uchun yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Bunday sharoitda qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalash tizimi tabiiy xavf-xatarlardan ko'riladigan moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirishning eng samarali iqtisodiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'tkazilgan tahlillar sug'urta tizimini yanada takomillashtirish va fermer xo'jaliklari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish zaruratini ko'rsatmoqda. Mintaqalar bo'yicha sug'urta tariflarini bosqichma-bosqich muvozanatlashtirish, sug'urta qoplamalarini to'lash jarayonlarini raqamlashtirish hamda agrotexnik talablarni moslashuvchan tarzda optimallashtirish orqali tizim samaradorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, axborot shaffofligini ta'minlash va ochiq ma'lumotlar platformalarini joriy etish fermerlarning sug'urtaga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Banklar tomonidan kredit ajratishda sug'urta kafolatini integratsiyalashgan moliyaviy mexanizm sifatida qo'llash esa qishloq xo'jaligi subyektlari uchun moliyaviy barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish imkonini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси: - Тошкент, "Ўзбекистон", 2020 й.
2. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. Тошкент, "Адолат", 1996 й.
3. Ўзбекистон Республикасининг "Суғурта фаолияти тўғрисида"ги Қонуни. 2021 й.
4. Ўзбекистон Республикасининг "Қишлоқ хўжалиги таваккалчиликларини суғурта қилиш тўғрисида"ги қонуни. Тошкент, 2025 й.
5. Бектемиров А., Таниев А.Б., Собиров И.Х., Рузибоева Н.Х. "Суғурта иши". Дарслик. Тошкент, 2022 й.
6. Балдин К.В., Риск-менеджмент. Учебное пособие по риск-менеджменту. – 10. М.: ЭКМО, 2006. – 368 с.
7. Бокушева Р., Хайдельбах О. Актуальные аспекты страхования в сельском хозяйстве. Discussion Paper. No 57. 2004. С.54
8. Васин С.М., Шутов В.С. Управление рисками на предприятии: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – 304 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100